NODAR DUMBADZENING "HELLADOS" HIKOYASI BADIIYATI

https://doi.org/10.5281/zenodo.5897756

Urazayeva Gulhayo Nomonovna
Farg'ona shahar 27-o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada adib* Nodar Dumbadze ijodidagi qadriyatlarga sodiqlik, keksalarni ulug'lash, vatanga mehr kabi umuminsoniy g'oyalar *"Hellados" hikoyasi orqali tadqiq etilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *hikoya, inson va jamiyat, umuminsoniy g'oyalar, vatanparvarlik, Vatan timsoli.*

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o'ziga xos mazmuni mavjud. Tahlilning bosh maqsadi, asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat. O'quvchilar asarda ask etgan voqea va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmasligini anglay boshlaydilar.

Gruzin xalqining ardoqli adibi Nodar Dumbadze asarlarida ifoda etilgan ezgulik, insonparvarlik, adolatsevarlik, xalqqa muhabbat tuyg'ulari uni boshqa xalqlar o'quvchilari uchun ham suyukli yozuvchiga aylantirgan. Dumbadze 1928 yilda Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida dunyoga kelgan. Uning ilk hikoyalar to'plami «Qishloq bolalari» deb nomlangan va u 1958 yilda chop etilgan. Yozuvchining yirik asarlari «Men, buvim, Iliko va Illarion» qissasi va «Quyoshni ko'ryapman» romanida 2-jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlarining og'ir hayoti aks etgan. N.Dumbadzening «Quyosh kechasi», «Oq bayroqlar» romanlarida esa zamonaviy muhim ijtimoiy-axloqiy masalalar ko'tarilgan bo'lsa, «Abadiyat qonuni» asarida insonning jamiyatdagi o'rni, yashashning ma'nosi mavjud hayotiy lavhalar, shaxslar orqali aks ettirilgan. 1978 yilda yaratilgan mazkur asari nafaqat Gruziyaning o'zida, balki ko'plab boshqa yurtlarda ham izlab topib o'qiladigan asarlar qatoridan joy oldi. Dumbadze asarlari chuqur lirizm bilan sug'orilgan, ularda dramatizm yumor bilan uyg'unlashib ketgan. Uning asarlarida odamiylik, oqibat, vijdon, hayot talab etadigan fidoiylik kabi tushunchalar birinchi o'rinda turadi. Adibning "Abadiyat qonuni" romanidan tashqari o'nlab

hikoyalari, "Ko'karacha" qissasi, "Oq bayroqlar" singari romani mohir tarjimon Nizom Komil tamonidan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, kitobxonlarimizga taqdim qilingan. Adibning aksariyat asarlaridagi voqea-hodisalar, insonlar taqdiri o'zining o'tkir dramatizmi bilan birga samimiy yumori bilan ham o'quvchi yodida uzoq saqlanib qoladi. Nodar Dumbadze asarlaridagi g'oya va ma'nolar bizning ko'nglimizdan joy olishining yana qator sabablari bor, albatta. Avvalo, gruzinlar ham xuddi o'zbek xalqidek o'z ona diyorlarini behad sevadilar. Qadim an'analarga sodiqlik, har qanday qiyin ahvolda ham Vatanni tashlab ketmaslik, yoshi ulug'larni e'zozlash singari insoniy ko'nikmalar har ikki xalqqa birdek xos.

Nodar Dumbadze ijodidagi qadriyatlarga sodiqlik, keksalarni ulug'lash, vatanga mehr kabi umuminsoniy g'oyalar mujassamligi adibni ko'plab o'zbek kitobxonlarining ham sevimli yozuvchilaridan biriga aylantira oldi. Ayniqsa, "Hellados" hikoyasi ham adibning o'zbek kitobxonlari uchun qimmatli bo'lgan asarlaridandir. Asarda hali bolalik dunyosini tark etmagan bezori o'spirin Yanguli o'zi ulg'aygan Venetsian ko'chasini butun bir Vatan deb bilardi. U o'z "vataniga" faqat o'zi hukmron bo'lishni istar, "vatanida" paydo bo'lgan begona bolaning dadilligi esa uni g'ashini keltirardi, shu bilan birga jinday cho'chitardi ham. U "vataniga" o'zga bir bola "ega chiqishidan" cho'chirdi. Bu epizod Yangulining Jamol bilan mushtlashuvga kirishmoqchi bo'layotgan paytidagi nutqi orqali o'z ifodasini topgan: "Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko'chasining hur farzandlariga murojaat qilaman! Ro'parangizda tbilisilik rangpar laqma bilan uning jiyani — vatan va qabila xoini, mishiqi Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo'stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo'lish o'rniga — xudo siylagan erimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o'tloqlarimizni o'ziniki qilib olmoqchi…"

Hikoyada so'nggida Suxumida yashayotgan greklarning o'z yurtiga, Elladaga qaytishi kerakligi bayon qilinadi. O'z-o'zidan ma'lumki, Yanguli ham millatdoshlari bilan yurtiga qaytib ketishi lozim edi. O'z yurtiga qaytish imkoni yaratilganini Suxumida yashayotgan butun grek xalqi katta xursandchilik bilan qarshi olishadi, ammo bu xabar Yanguliga haqiqiy judolik, haqiqiy musibat bo'lib tatiydi. Chunki bu judolik Yanguli uchun ko'plab qimmatli tuyg'ulardan — bolalikdan, muhabbatdan va Vatandan ayro tushmoq edi. Hikoyadagi "na bir-biriga g'anim, na yaqin do'st" bo'la olmagan Yanguli bilan Jamolning suhbati orqali yozuvchining estetik ideli, dunyoqarashi aks etadi.

"— Nega birga ketmoqchimassan? — deb so'radim astoydil taajjublanib.

Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.

— Qandoq tushuntirsamikin… — deya gap boshladi u nihoyat. — Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida… Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim… Mening vatanim, mening Elladam bu — Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu — Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'prik… — U bir yutinib olib, davom etdi: — Bu — Mida… qolaversa, sen…

A'zoyi badanim jimirlashib ketdi. Bunaqa so'zlarni umrimda birinchi marta eshitayotgan edim.

— Bu nima bo'lmasa? — Men Yangulining ko'kragini ochib, baland ovozda o'qidim: — Hellados.

— Bu — naqsh, Jamol. Vatan — ichkariroqda, naqd yurakning o'zida! — Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'ydi."

Darhaqiqat Yangulining qalbida ota-bobosi tug'ilgan Gretsya emas, o'zi o'sib ulg'aygan Suxumi Vatan timsolida edi. Oqibatda u o'zini bu vatani uchun, Jamoldan qizg'onib ayovsiz mushtlashgan Suxumisi uchun qurbon qildi.

Nodar Dumbadzening «Hellados» asarini sinchiklab o'qib, undan yana talay ma'nolar topishimiz, ruhimiz va dunyoqarashimizni boyitishimiz shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Dumbadze.Abadiyat qonuni. – t.: «Sharq», 2004.

2. http:G'G'kh-davron.uzG'yangiliklarG'muborak-kinG'nodar-dumbadze-hellados.html